



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH
VAZIRLIGI



TOSHKENT
DAVLAT
PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

**MAKTABGACHA TA'LIMDA
DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINI RIVOJLANTIRISH:
YANGI SHAKLLARI VA TA'LIM MAZMUNI**
mavzusidagi
**XALQARO ILMIIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI**



2020-YIL 13- MAY
TOSHKENT SHAHAR

Konferensiyaning tashkiliy va dasturiy qo‘mitasi

1. A.Yu.Umarov TDPU rektori, tashkiliy qo‘mita raisi
2. B.S.Abdullaeva TDPU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais o‘rinbosari
3. M.T.Mirsolieva TDPU Maktabgacha ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo
4. G.E.Djanpeisova TDPU, «Maktabgacha ta‘lim metodikasi» kafedrası mudiri, a‘zo
5. N.N.Djamilova TDPU Maktabgacha ta‘lim metodikasi kafedrası professor v.b., a‘zo
6. M.N.Agzamova TDPU Maktabgacha psixologiya va pedagogika kafedrası mudiri, a‘zo
7. Sh.Shodmonova TDPU Maktabgacha psixologiya va pedagogika kafedrası professor, a‘zo

Taqrizchilar:

- Pedagogika fanlari doktori, professor D.Ro‘zieva
- Pedagogika fanlari doktori, professor B.X.Xodjaev
- Pedagogika fanlari doktori, professor v.b. M.B.Urazova

Mazkur to‘plam pedagogika fanlari doktori, professor B.S.Abdullaevaning umumiy tahriri ostida tayyorlangan.

To‘plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma‘lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas‘uldirlar.

104.	<i>Rasulxo'jaeva M.A., Ermatova S.B.</i> Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining badiiy adabiyotni ijro etishdagi asosiy metodlar	245
105.	<i>Rasulxo'jaeva M.A., Ahmedova Z.H.</i> Инновационный креативный подход к педагогической воспитательской деятельности	246
106.	<i>Raximov Sh.N.</i> Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga musiqiy tarbiya berishning ba'zi muammolari	248
107.	<i>Raximova M.</i> Tarbiyalanuvchilarda qadriyatga yo'naltirilgan munosabatni shakllantirish	250
108.	<i>Raximova S.S.</i> "Ik qadam" davlat o'quv dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlarda ta'lim faoliyatini tashkil etish	252
109.	<i>Raxmonova G.U.</i> Bolalarni o'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o'yinlar	256
110.	<i>Raxmonova G.Sh.</i> Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida "Ik qadam" o'quv dasturini tarbiy etishda tarbiyachining kompetentligi	258
111.	<i>Raxmonova M.</i> Bolalarda vokal kuylashda talaffuzning o'rni	259
112.	<i>Rejimetova N.I.</i> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa faoliyatini tashkil etish	262
113.	<i>Ro'zmatov Z.</i> Musiqa madaniyat fanini o'qitishda faoliyat turlaridan foydalanish metodikasi	265
114.	<i>Rustambekova N.A.</i> "Ik qadam" davlat o'quv dasturini amaliyotga joriy etilishi	267
115.	<i>Rustamova M.E.</i> Профессиональная мобильность воспитателей дошкольного образования	270
116.	<i>Sabitova K.A.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga qiziqishni rivojlantirish	273
117.	<i>Sadikova Sh.A.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarning iqdorini shakllantirishda o'yinning ahamiyati	275
118.	<i>Sadikova Sh.A., Xoshimova Yo.</i> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiya tizimiga zamonaviy yondashuvlar	277
119.	<i>Sadykova P.P.</i> Систематизация и актуализация метода работы с текстом	279
120.	<i>Saydajimova D.</i> Developing communication skills in children with disabilities	282
121.	<i>Salaeva M.S., Djumabaeva M.</i> Psixologlar faoliyatida bolalar salomatligini saqlovchi va shaxsini rivojlantiruvchi raqamli manbalar kolleksiyalarini ishlab chiqish zaruriyati	285
122.	<i>Saliboeva B.O.</i> Развитие коммуникативной компетенции педагога посредством инновационных технологий	286
123.	<i>Salimova D., Rejimetova A.</i> Роль танцев в духовном и физическом развитии дошкольников	288
124.	<i>Salimova D.F.</i> Syujetli-rolli o'yinlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'ziga xosliklar	290
125.	<i>Salimova S.F.</i> Talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllanganlik darajasini baholash ta'minotini ishlab chiqishdagi asosiy masalalar xususida	292
126.	<i>Sapayeva F.</i> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy ritmik faoliyatni tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar	294
127.	<i>Seменова T.A.</i> Развитие ориентировки в пространстве у детей старшего дошкольного возраста как одно из направлений подготовки к обучению в школе	296
128.	<i>Sodirov N.</i> Sozandalik mahoratini rivojlantirish istiqbollari	297
129.	<i>Soliev H.S.</i> Бўлажак бошлангич синф ўқитувчиларининг ахборот компетентлигини ривожлантиришнинг потенциал имкониятлари	299
130.	<i>Soliev O.F.</i> Развитие организационной культуры учителей повышения квалификации	301

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATIDA "ILK QADAM" O'QUV DASTURINI TATBIQ ETISHDA TARBIVACHINING KOMPETENTLIGI

Raxmonova G.Sh.

Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan etib voyaga yetkazish – dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda albatta zamon talabiga mos keladigan Davlat talablarini yangi, qo'shimchalar kiritilgan variantini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Shulardan kelib chiqqan holda, bir qator olim va tajribali amaliyotchilar ishtirokida ushbu Davlat talablari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-2707-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida"gi 929-son qarorlariga asosan ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha dolzarb masalalarni o'z oldiga qo'ygan. Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bola ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim berishdagi kompetensiyaviy yondashuvda o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan axloqiy me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirishni o'ziga singdirish, boshqa insonlar bilan muloqotga kirishishda o'zining "Men"ini yaratish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlik nazarda tutiladi. Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab yetadi. Maktabgacha yoshidagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalariga kommunikativ, o'yin, ijtimoiy bilish kompetensiyalari kiradi. Boshlang'ich kompetensiyalar rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsini shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi – bu o'ziga xos olam, unda bola o'zini qulay, xavfsiz va manzur sezishi lozim. Bu borada ta'lim jarayoni muhim ahamiyatga ega.

"Ilk qadam" o'quv dasturi asosida 3 yoshdan 7 yoshga qadar ilk bora mavzuviy rejalashtirish ishlab chiqilgan. Mavzuviy rejalashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish tavsiya etilgan. Mashg'ulotlar pedagogning ijodiy yondashuvi asosida bolaning ehtiyoji va imkoniyatidan kelib chiqqan holda olib boriladi. Faoliyat ikki yoki undan ortiq rivojlantiruvchi muhitlarda tashkillanishi tavsiya etiladi. Rivojlantiruvchi muhitning asosiy faoliyat turi bu – o'yin.


Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishda bolaning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachining maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishida yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy interfaol usullar, test metodikalari, ko'rgazma va tarqatma materiallar, texnika vositalaridan umumli foydalanishi samarali natija beradi. Pedagogik texnologiyalar bilan sug'orilgan mashg'ulotlarda bolalar o'zlarini erkin his qiladilar, barcha topshiriqlarni bajonudil bajaradilar. Bolalar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tez va zo'riqishsiz, oson egallaydilar, o'ynab zavq oladilar, tafakkurlari rivojlanadi.

Bizga ma'humki, turli sohalar bilan bir qatorda ta'lim tizimida ham oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan "Ustoz-shogird" an'anasi malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha o'rgatishning sinalgan qismi hisoblanadi. "Ustoz-shogird" an'anasiga ko'ra, mahoratli, ilg'or, tajribali ijodkor tarbiyachilar aniqlanib, ularga intiluvchan ustoz maslahatiga ehtiyoj sezadigan shogird birlashtirish bilan ta'lim sifati oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997.
3. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. –T., 2018.
4. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. –T., 2018.



BOLALARDA VOKAL KUYLASHDA TALAFFUZNING O'RNI

Raxmonova M.

Toshkent davlat pedagogika universiteti, magistrant

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'nggi tarixan qisqa davr ichida, ta'lim sohasida olamshumul o'zgarishlar va yutuqlar qo'lga kiritildi. Bular ichida biz uchun eng muhimi respublikamizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yaratilishi va hayotga tatbiq etilishi bo'ldi. Ta'lim va tarbiyaga qaratilgan bunday ulkan diqqat-e'tiborning ahamiyati o'laroq, jahonda yagona bo'lgan ta'lim-tarbiyaning o'zbek modeli ishlab chiqildi. Bu sohada barcha fanlar qatori musiqa madaniyati va san'ati fanini o'qitish uslublarini zamon va makon talablari asosida takomillashtirish va rivojlantirish masalalari ko'rsatib berildi.

Bolalarni kuylatganda faqat yumshoq attaka ovoz bilan boshlash lozim, hech qachon qo'shiqni qattiq attaka bilan boshlamaslik kerak. Buni o'qituvchi nazorat qilib borishi shart.

Talaffuz. Kuylashdagi talaffuz nutq talaffuzidan farq qiladi. Kuylashdagi talaffuz artikulyatsiya organlari (lab, til, jag')ning faol hamjihatligi vositasida amalga oshiriladi. Bolalar nutqida zaiflik, noaniqlik, ovoz apparatini siqib gapirish, natijasida bolada baqirib kuylash nuqsonlari uchraydi. Bunday bolalarga e'tiborni kuchaytirish va ular bilan uzoq vaqt yakka tarzda mashg'ulot olib borish, shoshmasdan erkin gapirish va kuylashga undash lozim. Nafasni to'g'ri olib, jumlaning oxirigacha yetkazishda, unli tovushlarni cho'zib, undosh tovushlarni burro, dona-dona qilib kuylashga o'rgatib borish talab etiladi. Bunda og'iz shaklini, tilni harakatlariga, o'zgarishiga katta ahamiyat berish kerak. Eng muhimi, bolalarni mashq va qo'shiqlar matnini vokal uslublariga muvofiq, talaffuz etishga o'rgatib borish lozim.

Vokal malakalarini shakllantirishning muhim yo'li bu kuylash uchun olinadigan nafasni to'g'ri olishdan boshlanadi. O'quvchilar odatda kuylash uchun yelkalarini va ko'krak qafasini yuqori ko'tarib, nafas olishni to'g'ri yo'l deb hisoblaydilar. Shuningdek, ular olingan nafasni tez chiqarib yuboradilar va qolgan nafas orqali zo'riqib kuylashga odatlangan bo'ladilar.

Nafasni kuylash uchun yo'naltirishning muhim jihati bu og'iz kumida kuylanadigan so'zlarni shakllantira olishga bog'liq bo'ladi. Og'iz kumida tishlar, lablar, til tangli orqali unli va undoshlarni to'g'ri talaffuz qilish jarayoni ham kuylashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ovoz hosil qilishda muhim bo'lgan quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish tavsiya etiladi:

1. Unlilarni cho'zib kuylash, ovoz hosil qilishning muhim tomoni ekanligini bilish.
2. Undoshlarni qisqa va keskin talaffuz qilish.
3. So'zlarni og'iz kumida aylantirib to'g'ri shakllantira olish.
4. Nafasni tovush parvozi ta'minlash.